

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSs.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**MANNANOV MUZAFFAR IBRAGIMOVICH**

**SUVNI CHUCHUKLANTIRISH TIZIMI HARORATINI NAZORAT  
QILUVCHI MIKROELEKTRON QURILMANI ISHLAB CHIQISH**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**TEXNIKA FANLARI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Mannanov Muzaffar Ibragimovich**

Suvni chuchuklantirish tizimi haroratini nazorat qiluvchi mikroelektron qurilmani ishlab chiqish..... 3

**Маннанов Музаффар Ибрагимович**

Разработка микроэлектронного устройства для контроля температуры систем опреснения воды..... 23

**Mannanov Muzaffar Ibragimovich**

Development of technology for creating ultrasensitive thermoresistive silicon structures..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSs.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**MANNANOV MUZAFFAR IBRAGIMOVICH**

**SUVNI CHUCHUKLANTIRISH TIZIMI HARORATINI NAZORAT  
QILUVCHI MIKROELEKTRON QURILMANI ISHLAB CHIQISH**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**TEXNIKA FANLARI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T1502 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Qo'ldashov Obbozjon Xokimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:** **Tagaev Marat Baymuratovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Raxmonov Anvar Tojibyeovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Namangan muhandislik-qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «27» 03 soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Tashkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel. (99871) 248-79-94, faks: (99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz, O'zMU huzuridagi YaFM ITI majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (67 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel. (99871) 248-79-59. e-mail: info@ispm.uz.).

Dissertatsiya aytoreferati 2025 yil «14» 03.2025 kuni tarqatildi.  
(2025 yil «14» 03 dagi 67 raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.B.Utamuradova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, f-m.f.d., professor

**J.J.Hamdamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

**N.A.Turgunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fan va texnika taraqqiyoti, resurslarni tejashning texnik vositalari, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, ekologik muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda yarimo'tkazgichli harorat datchiklari muhim o'rin egallamoqda. Mavjud harorat datchiklari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi ularning sezgirlik va tezlik imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan.

Jahon miqyosida harorat datchiklarining tubdan yangi turilari va optimal texnologik usullarini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. Shu munosabat bilan olimlar va ishlab chiquvchilar hozirda quyidagi ilmiy muammolarga duch kelishmoqda: harorat datchiklarining sezgirligi va tezligini oshirish; harorat datchiklarining ishlash muddatini oshirish; harorat datchiklarining ishlash jarayonini soddalashtirish; masofaviy haroratni o'lchash. Ushbu muammoni hal qilish, yaxshilangan degradatsiya xususiyatlari va parametrlarning barqarorligi, kam energiya iste'moli va o'lchamlari kichik, qo'shimcha kuchaytirish tizimlari yo'qligi, ishlash qulayligini ta'minlaydigan, universal fizik kattalik datchiklarining tubdan yangi sinfini yaratishga imkon beradi, chunki, ular tashqi ta'sirlarga juda sezgir bo'lgan fizik hodisalar asosida ishlaydi va mavjud bo'lgan datchiklarga nisbatan sezgirlik va tezlik chegarasi yuqori bo'ladi.

Respublikamizda so'ngi yillarda iste'molchilarini toza va sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash hamda oqova suv xizmatlarini yaxshilash borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, muhim natijalar olindi. Ayniqsa yarimo'tkazgichli datchiklar asosida suvni chuchuklantirish tizimidagi haroratni real vaqt davomida avtomatik nazorat qiluvchi mikroelektron qurilmani ishlab chiqishda Ni, Cu kirishma atomlari bilan, diffuziya usuli yordamida legirlangan n- va p- tipli kremniy namunalari asosida issiqlik datchiklarini yaratish masalalarini xal qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Taqdim etilayotgan dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" farmoni PF-60 son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarorining 6 ilovasi 386 bandi, 2017 yil 13 fevraldagi "2017–2021 yillarda elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PQ-2772-son hamda 2017 yil 17 fevraldagi "Fanlar akademiyasining faoliyatini, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son Qarorlari, va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning amaliy tadqiqot dasturi III «Energetika,

energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligining rivojlanishi»ning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Bugungi kunga qadar haroratga sezgir yarimoʻtkazgich elementlar nazariyasining rivojlanishiga va ularni amaliyotga qoʻllashda koʻplab olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Xususan:

Chet el olimlaridan Kofi Makinva (Niderlandiya), Devid Rufe (Shveytsariya), Pyonvon Park (Singapur), Garri Maklay (AQSh), Syu Yuysi Lan (Xitoy), Tixiro Okutani (Yaponiya) yarimoʻtkazgich materiallari asosidagi harorat datchiklar yaratdilar. Ammo yaratilgan datchiklarning oʻlchash haroratlari oraligʻi tor doirada ( $-40 \div 120$  °C) ishlashga moʻljallangan.

Rossiyalik olimlardan V.M. Glazov, V.A. Dobrovolskiy, Yu.V. Zaysev, Sheftel va G.Vigleblarning ishlarida elektron qurilmalarda harorat datchiklaridan keng foydalanishga katta eʼtibor qaratilgan. Hozirda mavjud boʻlgan haroratlarga nisbatan oʻta sezgir sirtqi akustik toʻlqinlar asosida ishlaydigan haroratlarni yaratish Rossiyalik olim, akademik Yu.V. Gulyaev va uning shogirdlari tomonidan taklif qilingan.

Oʻzbekistonda kompensatsiyalangan kremniy asosidagi harorat datchiklar yaratish boʻyicha akademiklar: M.K. Baxadirxanov, S. Zaynabidinov, professorlar: B.Egamberdiyev, M.Toshmetovlar rahbarligi ostida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu harorat datchiklarining baza sohasi yuqori qarshilikka, yaʼni  $\rho = 10^4 \div 10^5$  Om·sm boʻlib, nisbatan yuqori kuchlanishlarda ( $9 \div 12$ V) ishlaydi. p-n-oʻtishli harorat datchiklar yaratish boʻyicha esa akad. R.A. Moʻminov, professorlar: A.V. Karimov, A.Z.Raxmatov, K.P.Abduraxmonov va A.S.Risbaevlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va koʻplab yangi datchiklar yaratilgan. Ammo yaratilgan yarimoʻtkazgich materiallari asosida yaratilgan harorat datchiklari tor harorat oraligʻida ishlashga moʻljallangan boʻlib, ekstremal holatda ishlash imkoniyati cheklangan va qimmat texnologiya hisoblanadi.

Bugungi kunda olish texnologiyasi nisbatan arzon boʻlgan, sanoatning barcha jarayonlarda boshqarilishi oson va ishchi parametrlari barqaror boʻlgan, haroratni oʻlchash oraligʻi keng ( $-60 \div 180$ °C) harorat datchiklar yaratilgan hamda avtomatlashtirilgan tizimlarda ulardan foydalanish imkoniyatlari mavjud, ammo bu texnologiyalar toʻliq oʻrganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimoʻtkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F3-2019060723 shifrlı “Oʻta yuqori sezgir yangi harorat datchik tuzilmalar asosida oʻlchov kompleksini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish” (2020-2023) mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Ishning maqsadi** Ni yoki Cu kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy monokristalli harorat datchiklarini yaratish hamda n-Si<Ni>, n-Si<Cu> datchiklari

asosida suvni chuchuklantirish tizimidagi haroratni avtomatik nazorat qiluvchi mikroelektron qurilmani ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Si monokristaliga Ni yoki Cu kirishma atomlarini diffuziya qilish texnologiyasini takomillashtirish;

Ni va Cu bilan legirlangan kremniy asosida qalinligi 240-250 mkm bo'lgan harorat datchiklarini tayyorlash.

Si<Ni> va Si<Cu> namunalari asosida tayyorlangan harorat datchiklarining sezgirligini oshirish.

tayyorlangan datchiklar asosida suvni chuchuklantirish tizimidagi haroratni 45÷60°C oraliklarda real vaqt davomida avtomatik nazorat qiluvchi mikroelektron qurilmani ishlab chiqish va suvni chuchuklantirish samaradorligini oshirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Ni yoki Cu kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy monokristallari asosidagi harorat datchiklari va ular orqali suvni chuchuklantirish tizimi haroratini nazorat qiluvchi mikroelektron qurilma olingan.

**Tadqiqot predmeti** sifatida nikel yoki mis kirishma atomlari bilan legirlangan n- va p-tipdagi Si<Ni> va Si<Cu> namunalar olingan.

**Tadqiqot usullari.**Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun Si<Ni> va Si<Cu> namunalarni, zamonaviy qurilmalarda xususan, to'rtzondli (Jandel MR3000) qurilmasida namunalarning solishtirma qarshilini, Xoll effekti (Ecopia HMS-7000) va Van-der-Pau metodi (Ecopia HMS-5000) yordamida zaryad tashuvchilar tipini, solishtirma qarshiligini, xarakatchiligi va konsentratsiyasi aniqlandi. Shuningdek, yuza morfologiyasi va elementar tarkibini skanerlovchi elektron mikroskop (SEM EVO MA10) da va qarshilikni haroratga bog'liq o'zgarishini (Keithley 2400) qurilmalaridan foydalanilgan holda aniqlangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor 240 mkm qalinlikdagi n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalar asosida 25÷70°C harorat oralig'ida sezgirligi mos ravishda  $\beta_{Cu}=8200K$ ,  $\beta_{Ni}=8600K$  bo'lgan harorat datchiklari yaratilgan;

ilk bor Si asosidagi mavjud harorat datchiklarida qo'shimcha qatlam sifatida metall (nikel) kompensatordan foydalanildi. Shunda mavjud harorat datchiklarini sezgirligi 8÷10 foizga oshirishga erishilgan;

tajribalar natijasiga ko'ra harorati  $T=100^{\circ}C$  bo'lgan suv va havo muhitlarida, datchiklarini sezgirligi, suvda gaz muhitiga nisbatan 17 foizga yuqori bo'lishligi n-Si<Ni> va n-Si<Cu> datchiklarda aniqlangan;

n-Si<Ni> va n-Si<Cu> datchiklari asosida suvni chuchuklantirish qurilmasi haroratini 45÷60°C oraliklarda avtomatik nazorat qiluvchi mikroelektron qurilma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nikel va mis bilan legirlangan kremniy monokristallarida kirishma hosil qilishning optimal texnologik sharoitlari ishlab chiqilgan;

yupqa 240 mkm qalinlikdagi n-Si<Ni> yoki n-Si<Cu> namunalar asosida sezgirligi yuqori bo'lgan harorat datchiklar yaratishning qulay texnologik sharoitlari ishlab chiqilgan;

nikel va mis bilan legirlangan kremniy datchiklar asosida suvni chuchuklantirish tizim haroratini ma'lum oraliqda real vaqt davomida avtomatik nazorat qiluvchi mikroelektron qurilma ishlab chiqildi va tuzsizlantirilgan suv olinish samaradorligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nikel yoki mis bilan legirlangan kremniy monokristali namunalarning elektrofizik xususiyatlari, diffuziya vaqtida va undan so'ng turli tashqi omillar ta'sirida ularda yuz beruvchi fizik jarayonlarni tadqiq qilishda umumqabul qilingan standart va keng qo'llaniladigan tadqiqot usullaridan shuningdek, tayyorlangan namunalarning elektrofizik kattaliklarini o'lchashda zamonaviy Jandel MR3000 va Ecopia HMS-5000 (Van-der-Pau) o'lchash qurilmalaridan, legirlangan kremniy monokristalida hosil bo'lgan kirishma atomlari to'plamlarining sirt morfologik xususiyatlarini o'rganishda SEM EVO MA10 skanerlovchi elektron mikroskopdan foydalanilganligi bilan asoslangan.

#### **Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olingan natijalar Si asosidagi harorat datchiklarini yartishda Ni yoki Cu kirishma atomlari bilan legirlangan n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalari tayyorlashni hamda harorat ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar to'g'risidagi tushunchani kengaytirishga yetarlicha imkon beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, n-Si<Ni> va n-Si<Cu> asosidagi harorat datchiklarini laboratoriya sharoitida kichik seriyada tayyorlash va sho'r suvlarni chuchuklantirishda haroratni nazorat qilishda amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Suvni chuchuklantirish tizimi haroratini nazorat qiluvchi mikroelektron qurilma ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mavjud harorat datchiklarga nisbatan sezgirlik koeffitsientini 8÷10 foizga oshirish uchun ularga qo'shimcha qatlam sifatida metall (nikel) kompensatordan foydalanish natijasida 240 mkm qalinlikdagi Si<Ni> yoki Si<Cu> namunalari asosida sezgirligi mos ravishda  $\beta_{Cu}=8200K$ ,  $\beta_{Ni}=8600K$  bo'lgan harorat datchiklari yaratilganligi «FOTON» aksiyadorlik jamiyatida ikki marta ionlashgan suv haroratini  $70\pm 0.5^{\circ}C$  da o'lchash uchun qo'llanilgan. ("O'zeltexsanoat" aksiyadorlik jamoasining 2024 yil 25 martdagi № 345-sonli ma'lumotnomasi). Olingan natijalar mavjud harorat datchiklariga nisbatan ishlab chiqarish samaradorligini 3 foizga oshirish imkonini bergan.

Si<Ni> namunalari asosidagi datchiklari yordamida suvni chuchuklantirish tizimlarida haroratni avtomatik boshqarish imkonini bergan va uning samaradorligini besh foizga oshirgan hamda "Er osti suvlarini tuzsizlantirish qurilmasi" uchun O'zbekiston Respublikasi Mulk agentligining foydali modeliga patenti olingan (№FAP 02349 28.04.2023y). Ilmiy natijalardan foydalanish er osti

suvlarini tuzsizlantirish samaradorligini oshirgan hamda aholini sifatli ichimlik suv bilan ta'minlashga imkonini bergan.

### **Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.**

Ilmiy natijalar 8 respublika va 7 xalqaro konferensiyalarda ma'ruza va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ishda, ulardan 6 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jamladan 2 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan hamda foydali model uchun 1 ta patent olingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, va 90 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 3 ta ilova, 120 sahifa matn, 43 ta rasm va 33 ta jadvaldan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va uslubi tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yarimo'tkazgichli harorat datchiklari va ularning istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida, hozirgi kunda keng foydalanilayotgan harorat datchiklarning asosiy fizik parametrlari, afzalliklari va kamchiliklari haqidagi ma'lumotlar, haroratni o'lchash, nazorat qilishda yarimo'tkazgich materiallar asosida yaratilgan harorat datchiklarning, istiqbollari bo'yicha ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Shuningdek yarimo'tkazgichli materiallarni kirishma atomlari bilan legirlanganda kirishmaviy nuqsonlarining kremniyning elektrofizik xususiyatlariga ta'siri bo'yicha adabiyotlardagi ma'lumotlar hamda sho'r suvlarni chuchuklantirish usullari tahlillari asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalar tayyorlash texnologiyasi va o'lchash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, kirishmali namunalar asosida harorat datchiklar yaratish jarayonida kremniy monokristalini mexanik kesish, mexanik va kimyoviy ishlov berish, kirishma qatlamini hosil qilish, nikel yoki mis kirishma atomlarini kremniy monokristaliga diffuziya qilish, namunalarining solishtirma qarshiligini o'lchashda to'rt zondli usuli, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va harakatchanligini o'lchashda Xoll effekti, Van der Pau usullari va zamonaviy qurilmalari haqida ma'lumotlar hamda n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalari elektrofizik parametrlari keltirilgan.

Shuningdek, ushbu bobda n- va p-tipdagi namunalari yuzasida hosil bo'lgan kirishma atomlari to'plamlarining sirt morfologik parametrlari va kimyoviy tarkibini o'rganish usullari keltirilgan.

Kirishmali namunalar asosida harorat datchiklar yaratishda mavjud adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida dastlabki materiallar sifatida n va p tipdagi, solishtirma qarshiligi  $\rho \sim 5 \div 130 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ , hajmiy kislorod konsentratsiyasi  $N_0 \sim 10^{17} \div 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ , dislokatsiyalar zichligi  $2,6 \div 4,5 \cdot 10^{-2}$  ga teng bo'lgan hamda Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan kremniy monokristallardan foydalanildi. Yaratilgan harorat datchiklar bir xil ishchi parametrga ega bo'lishida kremniy monokristalini kesish va unga mexanik hamda kimyoviy ishlov berish muhimligi ko'p bora ta'kidlab o'tilgan. Shuning uchun dastlab tanlab olingan kremniy monokristall quymalarini doira shaklidagi plastinalarga kesishda quyidagi usullar o'rganildi:

1. sim yordamida kesish;
2. tashqi olmos disk bilan kesish;
3. ichki olmos disk bilan kesish;

Quymalarni kesishda texnologik jihatdan eng qulayi ichki olmos kukunli disklar ekanligi aniqlandi va plastinkalar diametri  $d=0,35 \div 1 \text{ mm}$  qilib kesildi.

Kesilgan kremniy plastinkalarni avval qalinliklari mikrometr yordamida o'lchandi va qalinliklari bir xil kremniy plastinkalarga ajratib olindi va jilvirlash (shlifovka) ishlari amalga oshirildi. Kremniy plastinkalarni jilvirlash (shlifovka) stanogining qattiq yuzida shishada va donalari  $3 \div 28 \text{ mkm}$  gacha bo'lgan abraziv mikrokukunlar asosida amalga oshirildi:

jilvirlash (shlifovka) jarayoni bir necha bosqichda, mikrokukun zarralarining o'lchamini kamayib borishi bilan va bir xil og'irlikdagi toshlar (og'irligi  $5 \text{ kg}$ ) amalga oshirildi:

birinchi navbatda temir listga maxkamlangan diametri  $d=45 \text{ mm}$  bo'lgan 6 ta rezinkaga kremniy plastinkalar suv bilan namlab yopishtildi;

so'ngra shu rezinkaga mos ravishda yasalgan temir qolib kiydirildi;

jilvirlash stanogi yoqildi, odatda stanok soat strelkasi bo'ylab aylanadi;

tegishli tezlikni tanlash foydalanilayotgan poroshok markasiga va plastinkalar qalinligiga bog'lik bo'ladi;

rezinka yopishtirilgan kremniy plastinkalar bilan temir qolib stanok ustiga ko'yiladi hamda bir xilda jilvirlash uchun ustiga toshlar bostirildi;

jilvirlash (shlifovka) stanogida mahkamlangan uchta podshibniklar mavjud bo'lib, ularning vazifasi stanok ustidagi rezinka bilan yopishtirilgan kremniy plastinkalar soat strelkasiga teskari aylantirishdan iboratdir;

dastlabki jilvirlash (shlifovka) M14 karbid kremniy bilan shisha ustida  $6 \div 7$  sinf darajasi tozaligigacha amalga oshirildi. Olib tashlangan qatlam qalinligi  $25 \div 30 \text{ mkm}$  bo'lib, olib tashlash tezligi  $1,5 \text{ mkm}/\text{min}$  ni tashkil etdi;

asosiy jilvirlash (shlifovka) M10 karbid kremniy bilan shisha ustida  $8 \div 9$  sinf darajasi tozalaguncha amalga oshirildi. Bunda  $1 \text{ mkm}/\text{min}$  tezlik bilan  $15 \div 20 \text{ mkm}$  qalinlikdagi sirt olindi;

yakuniy jilvirlash M5 karbid kremniy bilan 10-sinf darajasigacha shisha oyna ustida amalga oshirildi;

bunda  $0,17 \text{ mkm}/\text{min}$  tezlik bilan  $5 \div 10 \text{ mkm}$  qalinlikdagi sirt olindi.

Olib tashlangan qatlam qalinligi kremniy plastinka kalinligiga qarab 40÷50 mkm ni tashkil etadi. Bunda kremniy plastiklari imkon qadar bir xil qalinlikka keltirildi. Bunga sabab diffuziya jarayonida kiritilayotgan kirishma atomlari bir xil chuqurlikka kirishishiga erishiladi. Jilvirlash (shlifovka) dan so‘ng dionlashtirilgan 200 gr suvga 10 gr vodorod peroksidi (60%)li aralashtirib plastinkalar solib qo‘yildi. Bu jarayon plastinkaga mikrokukunlar yopishib qolmasligi uchun bajarildi. Jilvirlash (shlifovka) jarayonidan so‘ng plastinkalar texnologik kirlardan tozalandi va kremniy plastinkalar o‘lchamlari mikrometr yordamida qayta o‘lchandi. Ya‘ni, plastina qalinligi talab etilgan qalinlikdan ±3 mkm dan katta farq qilmasligi kerak.

Namunalarga kimyoviy ishlov berish texnologiyasida quyidagi ishlar amalga oshirildi: monokristall kremniy yuzasini turli xil texnologik ifloslardan tozalash; kremniy yuzasidagi mexanik buzilgan joylarni olib tashlash; kremniy yuzasini tavsiflarini nazoratli o‘zgartirish (yuza qalinligini turg‘unlashtirish); kerakli qalinlikdagi namunalar olish uchun materialni nazoratli yemirish; p-n o‘tishni tayyor asboblarni parametrlarini boshqarishda kimyoviy yemirish; kerakli shakldagi sirt olish; kremniy plastinani kerakli o‘lchamdagi kristallarga kesish; kristall strukturasiidagi nuqsonlarni aniqlash; sirt xossalarini modifikatsiyalash; yuzadagi oksid qatlamlarni yo‘qotish va boshqalar.

Kremniy plastina sirtini tozalashda dastlab sirtida kimyoviy bog‘langan va molekulyar organik kirlar, qoldiq ionli va atomlar darajasidagi nuqsonlar ketma-ket olib tashlandi. Kremniy plastina sirtini yog‘sizlantirish organik eritmalar va spirtlar yordamida amalga oshirildi.

Ionlashmagan kirlarni (vazelin, mineral yog‘lar, parafin) va eritmalar benzol, toluol, to‘rtxlor uglerodlar yordamida olib tashlandi. Ionlashgan kirlar (oqsillar, yog‘lar, sirdagi faol moddalar) ionlashgan eritmalar uchxloretilin, aseton, metil, etil va izopril spirtlar yordamida tozalandi. Organik eritmalar va spirtlar bilan yog‘sizlantirish cho‘ktirish usuli bilan qaynoq eritmada amalga oshirildi. Bunday jarayonni qo‘llashdan maqsad, sirtini tozalayotganda qaytadan kirlanib qolishni oldini olishdir. Yuqoridagilardan tashqari kremniy plastinalar ultratovushli vanna orqali xam tozalash ishlari olib borildi.

Dastlab ultratovush vannaga 2 litr dionlashtirilgan suv qo‘yiladi. So‘ng bolalar sovunini poroshok qilib sovunli suv tayyorlanadi, kremniy plastinkalar temir (400gr) idishga solinadi hamda tayorlangan sovunli suvdan 200 gr qo‘yiladi, albatta kremniy plastinalar suvga to‘laligicha botiriladi. Shundan so‘ng ultratovush vanna yoqiladi, dastlab sovunli suvda 20 minut, so‘ng dionlashtirilgan suvda 20 minut yuviladi.

#### 1- jadval

##### Kremniy uchun HF:HNO<sub>3</sub> tarkibli eritma komponentlarining nisbatlari

Turi	Tarkibi, ml	Foydalanishdan maqsad	Ishlov berish vaqti
CP-8	HNO <sub>3</sub> - 2, HF- 1	Kimyoviy sayqallash	1-2 min.
CP-4A	HNO <sub>3</sub> - 5, HF - 3, CH <sub>3</sub> COOH - 3	p-n-o‘tish chegarasini aniqlash	2-3 min.
Uayt yemirgichi	HNO <sub>3</sub> - 3, HF - 1	plastinalarni tez sayqallash	15-30 sek.
Desh yemirgichi	HNO <sub>3</sub> - 3, HF-1, CH <sub>3</sub> COOH - 8-12	plastinalarni sekin sayqallash	1 soatdan 16 soatgacha

Jarayonlar tugagandan so'ng dionlashtirilgan suvda 4 marta chayib olinadi va infraqizil lampada  $T=80\div 90$  °C gradusda 30 minut davomida quritiladi. Kremniy plastanalarda bu jarayonda tozalashdan maqsad plastinalar orasida qolib ketgan ifloslanishlarni chiqarib yuborishdir.

Kremniy monokristalli asosidagi harorat datchiklarni yaratishda kirindi sifatida tozaligi 99,999 % bo'lgan Ni yoki Cu elementlari kirishma atomlaridan foydalanildi. Kremniy plastinalarning yuzasiga Ni yoki Cu dan iborat metall qatlamni purkashda  $R=10^{-6}$  mm.sm.ust. bosimda VUP-4 vakuum qurilmasida amalga oshirildi va metall qatlam kalitligi (nikel  $d=600$  nm, mis  $d=715$  nm) MMI-4 qurilmasi yordamida o'Ichandi. Tayyorlangan namunalarni nikel yoki mis atomlari kirishmalarining diffuziyasi havosi so'rib olingan kvarsli ampulalarda (vakuum  $2 \cdot 10^{-3}$  mm.sm.ust.) amalga oshirildi.

Diffuziya jarayoni SOUL-4 markali diffuzion pechda  $T=1150\div 1250$  °C da  $t=10$  minutdan  $t=2$  soat vaqt oraligida diffuziya amalga oshirildi. Pechdagi harorat kvars ampulasi o'rtasiga joylashtirilgan platina- platina rodiy (TPP10) termoparasi yordamida nazorat qilindi va bunda berilgan haroratni og'ishi  $t=(\pm 4\div 5)$  °C dan oshmasligi ta'minlandi. Diffuziyadan so'ng ampulalar ikki xil rejimda, sekin hona haroratida ( $v_{\text{sov}} \approx 5\div 10$  °C/sek), texnik moyda tez ( $v_{\text{sov}} \approx 230\div 250$  °C/sek) tezlikda sovitildi.

p-n o'tishli harorat datchiklarini yaratish uchun biz ikkita jarayondan iborat texnologiyadan foydalandik. Birichi kremniy plastinalarni fosfor bilan boyitish uchun diffuzand tayyorlab olindi. Diffuzand uchun fosforli (ammoniy-fosfornokisliy 2 zam( $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ) 2 gr olinib 20 gr deionizatsiyalangan suvda  $T=60$  °C da eritib olindi. Tayyor bo'lgan diffuzandni perkal matoda namunaning bir tomoniga surildi va qalam bilan belgi qo'yildi hamda infraqizil lampada  $T=90$ °C haroratda quritildi. Fosforni diffuziya qilish diffuzion pechda  $T=1250$ °C da  $t=2$  soat diffuziya qilindi va sekin ( $v_{\text{sov}} \approx 5\div 10$  °C /sek) hona haroratida sovitildi.

Fosfor kirishma atomlari bilan boyitilgan kremniy namunalarning yuzasini nikel bilan kimyoviy usulda qoplash ishlari o'tkazildi. Ni metall qatlamini hosil qilishda ishlatadigan elektrolit tayorlash uchun elektr plitadan foydalanib, maxsus kvarsdan yasalgan idishda quydagi kimyoviy elementlar eritmasi tayyorlandi: 100 ml dionlashtirilgan suv, nikel xlorit ( $\text{NiCl}_2$ ) - 2.1 gr, xlorli ammoniy ( $\text{NH}_4\text{Cl}$ ) - 4.9 gr, limon kislotasini ( $\text{C}_6\text{H}_8\text{O}_7$ ) - 7.9 gr, natriy gipofosfit ( $\text{NaH}_2\text{PO}_2$ ) - 1.7 gr, amiakli suvi 25% li eritmasi - 1 gr solindi va indikator qog'oz 7÷8 bo'lguncha ammiak qo'shib borildi), 70÷75 °C haroratda elektrolitga plastinalarning birinchi, fosfor tomoniga, rangsiz lak bilan surkab, kimyoviy eritmaga tushirildi. Plastinalar eritmada bir daqiqa ushlab turildi. Ni metall qatlamlari hosil qilinganda plastinalarning sirtida och sariq rangdagi qatlam yuzaga keladi.

Ni qatlamning qalitligi  $d=0,8$  mkm bo'lgan sof metall hosil bo'ldi. Tayyorlangan namunalarning diffuziyasi havosi so'rib olingan kvarsli ampulalarda (vakuum  $2 \cdot 10^{-4}$  mm.sm.ust.) amalga oshirildi. Diffuziya jarayoni SOUL-M2-U4.2 markali diffuzion pechda  $T=1250$  °C da  $t=2$  soat vaqt davomida diffuziya amalga oshirildi. Pechdagi harorat kvars ampulasining o'rtasiga joylashtirilgan xromel - alyuminiy termoparasidan foydalanib o'Ichab, nazorat qilib turildi va bunda

berilgan haroratni og‘ishi  $T=(\pm 5)^\circ\text{C}$  dan oshmasligi ta‘minlandi. Diffuziyadan so‘ng ampulalar ikki xil rejimda, hona haroratida  $v_{\text{sov}} \approx 5\div 10^\circ\text{C}/\text{sek}$  sekin, texnik moyda  $v_{\text{sov}} \approx 230\div 250^\circ\text{C}/\text{sek}$  tezlikda tez tushurish bilan sovitildi.

Si<Ni> va Si<Cu> namunalarining solishtirma qarshiligi, asosiy zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanlik elektrofizik parametrlari Xoll effekti bilan, Van-der-Pau usulida HMS5000 zamonaviy uskunasi, o‘tkazuvchanlik termozond qurilmasida o‘lchangan, 2-jadvalda kelitirib o‘tilgan.

2-jadval

Si<Ni> va Si<Cu> namunalarining elektrofizik parametrlari

	$T(^\circ\text{C})$	$V_{\text{sov}} \approx 5^\circ\text{C}/\text{sek}$					$V_{\text{sov}} \approx 250^\circ\text{C}/\text{sek}$				
		T ip	$\rho$ , ( $\text{Om}\cdot\text{sm}$ )	$\mu$ , ( $\text{sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ )	$n$ , ( $\text{sm}^{-3}$ )	$E_F$ , eV	T ip	$\rho$ , ( $\text{Om}\cdot\text{sm}$ )	$\mu$ , ( $\text{sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ )	$n$ , ( $\text{sm}^{-3}$ )	$E_F$ , eV
Si<Ni>	Dast	n	129	1341	$3,6\cdot 10^{13}$	0,35	n	129	1341	$3,6\cdot 10^{13}$	0,35
	Naz-t	n	135	1284	$3,6\cdot 10^{13}$	0,35	n	140	1253	$3,7\cdot 10^{13}$	0,35
	1150	n	5359	1135	$1,1\cdot 10^{12}$	0,42	n	9359	1103	$6,1\cdot 10^{11}$	0,35
	1200	n	10513	1081	$5,5\cdot 10^{11}$	0,46	n	18644	945	$3,6\cdot 10^{11}$	0,45
	1225	n	24351	931	$2,8\cdot 10^{11}$	0,47	n	68531	867	$1,1\cdot 10^{11}$	0,49
	1250	p	52522	386	$3,1\cdot 10^{11}$	0,45	p	97274	313	$2,1\cdot 10^{11}$	0,46
Si<Cu>	Naz-t	n	134	1267	$3,7\cdot 10^{13}$	0,35	n	139	1281	$3,5\cdot 10^{13}$	0,35
	1150	n	4521	1114	$1,2\cdot 10^{12}$	0,45	n	6532	1157	$8,3\cdot 10^{11}$	0,46
	1200	n	11314	992	$5,6\cdot 10^{11}$	0,46	n	15540	992	$4,1\cdot 10^{11}$	0,46
	1225	n	19562	917	$3,4\cdot 10^{11}$	0,47	n	38357	819	$2,0\cdot 10^{11}$	0,48
	1250	p	35285	310	$5,7\cdot 10^{11}$	0,43	p	69249	327	$2,8\cdot 10^{11}$	0,45

Diffuziya vaqtlari  $t = 2$  soat

Fermi sathini taqiqlangan sohada joylashishi quyidagi formulalardan foydalanib xisoblandi;

$$E_c - F = kT \ln e\mu_n\rho N_c \quad (1)$$

$$F - E_v = kT \ln e\mu_p\rho N_v \quad (2)$$

Bunda:  $\mu_n$ ,  $\mu_p$  –mos ravishda elektron va kovaklarning harakatchanligi,  $\rho$ -materialning solishtirma qarshiligi, ye-elektron zaryadi,  $N_c=2,4\cdot 10^{19}$  elektronlarni o‘tkazuvchanlik sohasidagi va  $N_v = 8,5\cdot 10^{18}$  kovaklarni valent sohasidagi holatlar zichligi, k-Bolsman doimiysi.

Olingan namunalarning sirtini tadqiq qilganda ikkilamchi (SED-secondary electron detector) detektori orkali tasviri olindi, bunda filamentga  $10\div 20$  kV gacha bo‘lgan tezlashtiruvchi kuchlanish qo‘llanildi. Namunani o‘lchash davomida ishlash masofasi (WD-working Distance) 8,5 mm saqlanib qolindi. Namunalar yuzasidan 30 mkm oksid qatlami M10 kukuni yordamida olib tashlandi. SEM qurilmasi yordamida o‘lchashda mis bilan legirlangan namuna uchun asosiy tarkibi kremniydan 92 vazn% iborat bulib, shuningdek mis taxminan 5 vazn% , qalay 1.4 vazn% va kislorod 1.3 vazn% ulushini tashkil etadi. Nikel bilan legirlangan namunada kremniy ulushi 94 vazn% iborat bo‘lib, nikel 3.5% atrofida, qolgan elementlar kislorod 1.7%, uglerod 0.7% va alyuminiy 0.6% lardan iborat. Diffuziyali yuqori termik ishlov berishdan so‘ng namunalar yuzasida mis va nikel atomlarining

klasterlari hosil bo'lgan va kremniy miqdori kamaygan. Bu legirlangan namunalarning elektr parametrlarini o'lchashimizning to'g'riligini ko'rsatdi.

Fosfor kirishma atomlarni diffuziya qilingan namunalar yuzasidan M5 kukuni yordamida 3 mkm olib tashlangan, namuna asosiy tarkibi kremniydan iborat bo'lib 98.6 vazn%, fosforning ulushi 1.4 vazn% tashkil etdi. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Si<P> namuna yuzasida xech qanday atomlarining klasterlari hosil bo'lmagan. Fosfor bilan legirlangan namunada fosforning konsentratsiya miqdori ortgan, hamda o'lchovlar natijasida 6 mkm qalinlikdagi sohada  $n^{++}$  soha hosil bo'lgan va uning konsentratsiya miqdori  $n=10^{20}$  dan yuqoriligini ko'rsatadi.  $n^{++}$  soha hosil qilingan namunaning ikkinchi tomonini nikel bilan legirlash orqali p-n o'tishga ega strukturalar olish imkonini yaratildi.

Disertatsiyaning **“n-Si<Ni> va n-Si <Cu> namunalar asosida harorat datchiklar ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida, n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalari asosida harorat datchiklar yaratishda namunalarga omik kontakt olish va kimyoviy usulda kristallarga ajratish, datchiklarni payka qilish hamda germetizatsiyalash ishlari, harorat datchiklarni qarshilikning haroratga bog'likligi qonuniyatlarini o'rganishda yangi zamonaviy usullardan foydalanib olingan eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

n-Si<Ni> va n-Si<Cu> namunalari asosidagi xarorat datchiklarini haroratga sezgirlik koeffitsientini past va yuqori haroratlardagi qiymatlari hamda omik kontakt, p-n o'tish asosida yaratilgan datchiklarning VAXlari keltirib o'tilgan.

Shuningdek, harorat datchiklarni graduirovkasi bo'yicha bajarilgan ishlar va tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Yarimo'tkazgichli materiallar asosida yaratilgan asboblar uchun omik kontakt olish texnologik jarayonning asosiy omillardan biri bo'lib, yaratilgan asboblarning sifatiga va ishchi parametrlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaratilgan harorat datchiklarga omik kontakt olishda tanlab olingan metallning chiqish ishidan kelib chiqqan holda amalga oshirildi. Omik kontakt olish jarayonini amalga oshirishda quyidagi shartlar hisobga olingan holda amalga oshildi: ya'ni n-tipdiga kremniy monokristalli uchun omik kontakt olishda,  $\phi_{yar} > \phi_m$  yoki  $\phi_{yar} = \phi_m$  yarimo'tkazgich materialni chiqish ishi metallning chiqish ishidan katta yoki teng bo'lishi kerakligi adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Agar bu jarayonning aksi bo'lsa  $\phi_{yar} < \phi_m$ , Shottki Bar'er olish mumkin bo'ladi. p-tipdagi kremniy monokristalli uchun omik kontakt olishda,  $\phi_{yar} < \phi_m$  yarimo'tkazgich materialni chiqish ishi metallning chiqish ishidan kichik bo'lsa omik kontakt, aksincha  $\phi_{yar} > \phi_m$  bo'lsa Shottki Bar'er olish mumkin bo'ladi.

VUP-4 vakuum qurilmasi yordamida n-Si<Ni>, n-Si<Cu> va n-Si<P,Ni> namunalar sirtiga metall omik kontaktlarni olishda, haroratga chidamli, metall Volfram (W) spirali (tigel) ustiga kumush (Ag) va nikel (Ni) metallari qo'yib, undan elektr tokini o'tkazib, qizdirish yo'li bilan o'tqazilgan (1(b) va 1(c)-rasmlar)

Kimyoviy usul bilan omik kontakt olishda nikel metall qatlamlarini kremniy sirtiga o'tkazish asosida ham amalga oshiriladi. Kimyoviy usul bilan omik kontaktlarni olishdan oldin kremniy plastinalarning sirti M-7 mikrokukunida

jilvirlandi va HF kislotasi yordamida plastinalar sirtidagi oksid qatlam olib tashlandi.


3-jadval

**Si plastinkalariga metall qatlam olishni texnik tavsifi**

Qurilma turi	Changlatish usuli	Changlanuvchi material	Vakuum qiymati, Pa	Plastinalarni, diametri, mm	Plastina soni
VUP-4	Rezistiv	Metal	$5,5 \cdot 10^{-5}$	20 ÷ 42	5

Nikel metall qatlamini hosil qilishda ishlatilgan elektrolit 100 ml dionlashtirilgan suv, nikel xlorid ( $\text{NiCl}_2$ ) - 2.1 gr, xlorli ammoniy ( $\text{NH}_4\text{Cl}$ ) - 4.9 gr, limon kislotasini ( $\text{C}_6\text{H}_8\text{O}_7$ )-7.9 gr, natriy gipofosfit ( $\text{NaH}_2\text{PO}_2$ ) - 1.7 gr, amiakli suvi 25% li eritmasi - 1 gr solinadi, indikator qog'oz 7-8 bo'lguncha ammiak qo'shib boriladi),  $85(\pm 5)^\circ\text{C}$  gradus haroratda elektrolitga plastinalar eritmada  $45(\pm 5)$  sek ushlab turildi.

Nikel metall qatlamlari hosil qilinganda plastinalarning sirti och sariq rangdagi qatlam bilan qoplandi (1(c)-rasm.). Bunda nikel metall qatlamida turli bo'shliqlar va adgeziyasi yomon bo'lgan qatlamlarni bo'lmasligi nazorat qilib turiladi.



**1-rasm.** Si<Cu> dastlabki namuna; b) vakumda olingan omik kontakt; c) kimyoviy usuldagi omik kontank; d) fotorezist qilingan namuna


Omik kontakt olingan namunalarni dastlab plastinalar yuzasiga fotorezist joylashtiramiz. Fotorezist yorug'likka sezgir polimer plyonka bo'lib, uning yordamida biz kerakli o'lchamdagi namunalarni belgilab olamiz.

Fotorezist bilan hosil qilingan qatlam mexanik ta'sirga chidamlidir. Bizning ishimizda pozitiv FP-2550 fotorezisti ishlatilgan bo'lib quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi; FP-2550 fotorezisti filtr kog'ozdan o'tkazildi; tomizg'ich yordamida namunaning bir tomoniga bir tomchi fotorezist tomizildi; fotorezis namuna sirtini to'la qoplashi uchun sentrafugada 20 sekund aylantirildi; fotorezis namunalar  $100^\circ\text{C}$  haroratli pechkaga 30 minut quritildi; shundan so'ng kerakli o'lchamdagi shablonni tozalab spirtida artildi va mikroskopda butunligi tekshirildi; namunaning yuzasiga shablon qo'yildi va maxsus qurilmada infraqizil nur ostida 30 sekund ushlab turildi; so'ngra kaliy ishqoriga 3 sekund solindi; dionlashtirilgan suvda yuvildi va  $100^\circ\text{C}$  haroratli pechkaga bir soat quritildi. (1(d)-rasm)

Namunaga fotorezist qo'llangandan so'ng yemirgich tayyorlandi. Yemirgichning tarkibi quyidagicha: politelen idishga bir hajmda HF ftoristovodorod


kislotasi va sakkiz hajmda  $\text{HNO}_3$  azot kislotasi ( $\text{HF}:\text{HNO}_3=1:8$ ) aralashtiriladi. Maxsus aylanadigan qurilma idishiga ushbu aralashma qo'yiladi (2(a)-2(b)-rasm).

Kremniy namunalar konteynerga joshlashtirilib aralashmali idishga tushirildi. Qurilmaning idishi 35 gradus burchak ostida soatiga 3600 marta aylanadi. Yemirilgan kristallar maxsus tirqishdan idishga tushadi. Aylanayotgan idish 14 minut aylangandan so'ng konteynerga chiqarildi. Aylanish jarayonida ajralgan idishning tagidagi kristallar deionizatsiyalangan suvda chayiladi (2(c)-rasm).



**2-rasm.** a) namunalar konteynerga joshlashtirish; b) kristallarga ajratish jarayoni; c) namunalar ko'rinishi; d) nikel kompensatorlar

Datchiklarni payka qilish kristallarga qalaylangan va qalinligi 130 mkm bo'lgan nikel kompensatorlar orqali amalga oshiriladi. Kompensatorlar maxsus stanoklar yordamida nikel listdan diametri 2 mm bo'lgan o'lchamda kesiladi (2(d)-rasm). So'ng tayyor kompensatorlar toluol eritmasida 15 daqiqa qaynatiladi va dionlashtirilgan suvda yuvilib hona haroratida quritiladi. Namunalar 3a-rasmda keltirilgan konteynerga joylashtiriladi. Konteynerdagi chuqurchalarga dastlab kompensator so'ng kristall (namuna), namunadan so'ng yana kompensator qo'yiladi va kassetaning qopqog'i yopiladi (3(b), 3(c) va 3(d)-rasmlar).



**3-rasm.** a) kovsharlash uchun konteynerni umumiy ko'rinishi; b) kristall joylatirish uchun joy; c) kristallni bosib turuvchi yukchalar; d) yukchalar tushib tirish uchun joy

Kasseta vodorodli payka qilish qurilmasiga qo'yiladi. Payka qilish asosiy metall oksidlariga nisbatan kamaytiruvchi xususiyatlarga ega bo'lgan gaz atmosferasida elektr isitiladigan maxsus pechlarda amalga oshiriladi. Boshqariladigan atmosferaga ega eng ko'p ishlatiladigan elektr kamerali

pechlarning ish joyiga payka qilish uchun yig'ilgan qismlarni yetkazib berish tarmoqli konveer, roliklar tizimi yoki maxsus uzatgichlar yordamida amalga oshiriladi.

Payka qilish jarayonida qismlar uchta kameradan o'tadi: dastlabki isitish kamerasi, payka qilish kamerasi va sovitish kamerasi. Barcha kamerada yengil ortiqcha bosim ostida himoyalovchi gazsimon muhit yaratiladi. Himoya gazlari nafaqat isitish vaqtida payka qilinadigan metallni oksidlanishdan himoya qiladi, balki ularning yuzasidan mavjud oksidlarni olib tashlash uchun ham ishlatiladi.

Usul, flyusdan foydalanishni talab qilmaydi, bu uning muhim texnik afzalligi bo'lib, payka qilish narxini pasaytiradi va jarayonning murakkabligini soddalashtiradi, chunki u flyus qo'llash operatsiyasini va payka qilish jarayonining so'nggida flyus qoldiqlarini olib tashlashni talab qilmaydi (4(a)-rasm).

Chiqish elektrodleri (kontaktleri) issiqlik o'tkazuvchanligi kichik bo'lgan metall simlar tayyorlanib olindi. Bunda elektrodlerining issiqlik o'tkazuvchanligi katta bo'lsa, harorat datchiklarining aniqligi va tezkorligi kamayadi.

